

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000


1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
2. Yusupova Soxiba Islombek qizi O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
5. Намазова Манзура Ураковна ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
8. Karimova Dilorom Shavkatovna VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
10. Шахзод Турниязов ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
12. Алена Ядмагиевна Иванова ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
18. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
20. Malika Soliyeva INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
21. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

22. Xurinsa Xudoyberdiyeva TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
23. Israilova Sayera Tashpulat qizi INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
24. Israilova Sayera Tashpulat qizi INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
25. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
26. Робиға Мамбетова ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
27. Ҳамидулла Годжиев ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
28. Ergashova Rano Turaevna LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
29. Bobir Maxammadov MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
30. Xalimova Firuza Rustamovna POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
31. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
32. Матлуба Шукурова ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
33. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195



Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li
Renessans ta'lim universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087372>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tili sinonimik lug'atlarida leksik birliklarning darajalangan tasnifi va uni shaklantirish metodologiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Sinonimlarning o'zaro semantik yaqinligi, uslubiy yuklamasi, qo'llanish doirasi hamda ekspressiv-emotsional qiymatlariga qarab darajalab berilishi lug'at tuzish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada aynan shu mezonlar asosida sinonimik qatorlarni tartibga solish metodlari, lug'atshunoslikdagi amaliy yondashuvlar va mavjud tajribalar chuqur o'rganiladi. Shuningdek, o'zbek tilidagi mavjud sinonimik lug'atlar tahlil qilinib, ularda darajalash prinsiplarining qay darajada izchil qo'llanilganligi tahlilga tortilgan. Maqolada ilgari surilgan metodologik yondashuvlar asosida sinonimik lug'atlar tuzishda ilmiy asoslangan, tizimli va funksional yondashuv zarurligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, leksikografiya, graduonimiya, sinonimik lug'at, o'quv lug'at, darajalanish lug'ati, darajalanish qatori, izohli lug'at.

Eshboyev Kahramon Bakir oglu
Associate Professor of Renaissance University of Education,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

METHODOLOGY OF RANKING IN SYNONYMOUS DICTIONARIES OF THE UZBEKISTAN LANGUAGE

ANNOTATION

This article analyzes the hierarchical classification of lexical units in Uzbek synonym dictionaries and the methodology for its formation from a scientific and theoretical perspective. The hierarchical classification of synonyms according to their semantic proximity, methodological load, scope of application, and expressive-emotional value is of great importance in the process of dictionary creation. The article deeply studies the methods of organizing synonymous series, practical approaches in lexicography, and existing experiences based on these criteria. Also, the existing synonym dictionaries in the Uzbek language are analyzed, and the extent to which the principles of hierarchy are consistently applied in them is analyzed. The article substantiates the need for a scientifically based, systematic, and functional approach to the creation of synonym dictionaries based on the methodological approaches put forward in the article.

Keywords: linguistics, lexicography, graduonymy, synonym dictionary, educational dictionary, grading dictionary, grading series, explanatory dictionary.

Эшбоев Кахрамон Бакир оглы

Доцент Ренессансного педагогического университета,
Доктор философии (PhD) по филологии**МЕТОДОЛОГИЯ РАНЖИРОВАНИЯ В СЛОВАРЯХ СИНОНИМИЧЕСКОГО
УЗБЕКИСТАНСКОГО ЯЗЫКА****АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируется иерархическая классификация лексических единиц в словарях синонимов узбекского языка и методика ее формирования с научно-теоретической точки зрения. Иерархическая классификация синонимов по их семантической близости, методической нагрузке, сфере применения и экспрессивно-эмоциональной ценности имеет большое значение в процессе создания словарей. В статье глубоко изучаются методы организации синонимических рядов, практические подходы в лексикографии и существующий опыт, основанный на этих критериях. Также анализируются существующие словари синонимов узбекского языка, анализируется степень последовательного применения в них принципов иерархии. В статье обосновывается необходимость научно обоснованного, системного и функционального подхода к созданию словарей синонимов на основе выдвинутых в статье методических подходов.

Ключевые слова: лингвистика, лексикография, градуонимия, словарь синонимов, учебный словарь, оценочный словарь, оценочная серия, толковый словарь.

So'ngi yillarda o'zbek tilshunosligida so'zlararo ma'noviy munosabatlarning yana bir turi bo'lmish lug'aviy graduonimiya hodisasi haqidagi qarashlarning shakllanib borayotganligi o'zbek tili leksikologiya sathida yechimini kutayotgan dolzarb muammolar borligidan dalolat beradi. Bu borada graduonimiya hodisasining an'anaviy sinonimiya xususidagi qarashlar bilan o'zaro munosabati masalasiga oydinlik kiritilishi so'z shakli va ularning ma'noviy munosabatlari doirasida bajarilgan yangi bir tadqiqotni yuzaga chiqaradi. Jumladan, lug'aviy ma'no guruhlaridan biri bo'lgan sinonimik so'zlar orasidagi bunday munosabat ma'no jihatdan bir xil bo'lgan so'zlar belgisining oz-ko'plik darajasiga ko'ra farqlanishiga asoslanadi. So'zlarning ana shu munosabatlarini hisobga olib guruhlash, ya'ni so'zlarning (ma'no) miqdoriy ko'rsatkichiga ko'ra darajalanishini asoslovchi guruhlardan so'zlar qatorini - graduonimik lug'aviy qatorni tashkil etadi. Bunday guruhlardagi har bir so'zda ayni bir belgining turli xil darajasi aks etadi. Masalan, *odam – kishi – inson – siymo – daho, nam tortmoq – xo'l bo'lmoq – ivimoq – bo'kmoq; sabo – shabada – yel – shamol – bo'ron – to'zon – quyun* kabi[1,19].

O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda darajalanish hodisasini turli sohalar va kontekstlarda chuqur o'rganishga bo'lgan ehtiyoj kuchaydi. Ayniqsa, graduonimiya atamasi tilshunoslikning mustaqil yo'nalish sifatida shakllanib, uni boshqa lisoniy hodisalardan ajratib turuvchi xususiyatlar aniqlana boshladi. Bu hodisa o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragida yuzaga kelgan bo'lib, til hodisasi sifatida darajaviy birliklarni o'rganish, ularni izchil tasniflash, o'quv va izohli lug'atlarda ifodalash bugungi zamonaviy tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda darajalanish bilan bog'liq bo'lgan daraja kategoriyasi va darajali oppozitsiya kabi terminlar ham mavjud bo'lib, ular akademik A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da batafsil izohlangan. Jumladan, "darajali oppozitsiya" atamasi bir belgining turli darajalarda namoyon bo'lishi asosidagi zidlanishni bildiradi. Masalan: *kuchli – baquvvat – zabardast* kabi sifatlar o'zaro daraja farqi asosida qarama-qarshi qo'yiladi. Shuningdek, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "daraja" leksemasi turli ma'nolarda qo'llanilgan ko'p ma'nolilikka ega so'z sifatida keng talqin etiladi. Unda quyidagi ma'nolar keltirilgan:

DARAJA [*a.*- bosqich; martaba, unvon; zina].

1 Ish-harakat, xususiyat yoki holatning me'yor, chegarasini anglatadi; ko'pincha, aniqlovchilar bilan ishlatiladi. *Traktor quloqni qomatga keltiradigan darajada tarillab ishlaydi.* [E.Usmonov, Yolqin].

2 Tadrijiy yoki nisbiy taraqqiyot, rivojlanish pog'onasi; saviya, yuksaklik o'lchami. *Bilim*

darajasi. Turmush darajasi. Texnikani hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarmoq. — Bo'sh vaqt ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyot darajasiga bog'liq bo'lib, o'zi bu taraqqiyotning bevosita natijasi hisoblanadi. ["Fan va turmush"].

3 esk. Mansab pog'onasi, rutba, martaba. *Anvar bosh munshiylik darajasini olgandan keyin, maxdum ilgari "siyosat"ni davom ettirish va ettirmaslik to'g'risida ikkilanib qoldi. [A.Qodiriy, Mehrobdan chayon].*

4 Ilm-fan sohasidagi ishlari uchun ma'lum qoidalar va talablar asosida beriladigan ilmiy unvon. *Ilmiy daraja. Fan nomzodi darajasi. Fan doktori darajasi. — Ilmiy kengash kashfiyotimni ko'rib chiqib, yaxshi baholabdi va menga meditsina fanlari doktori darajasini berishga qaror qilibdi. [X.To'xtaboyev, Shirin qovunlar mamlakati].*

5 O'z ixtisosi bo'yicha erishilgan malaka pog'onasi. *O'rta darajadagi tibbiyot xodimlari. Beshinchi darajadagi payvandchi.*

6 Jamiyatda, hayotda, kishilar o'rtasida tutgan o'rin, martaba, e'tibor. *Darajalari baland bo'lsin! (duo, yaxshi tilak). — Har kim o'z darajasiga ko'ra har vaqt o'tiradigan o'rnida qaror topdi. [Oybek, Navoiy].*

7 Sira, karra, bor, marta. *O'tirishdilar, fothadan so'ng yana bir daraja ahvol so'rashildi. [A.Qodiriy, Mehrobdan chayon].*

8 Biroz, ozgina, andak. *Hoji shu javobdan keyin o'g'lidan bir daraja qanoatlandi. [A.Qodiriy, O'tkan kunlar].*

9 mat. Burchak va aylana yoyining o'lchov birligi; to'g'ri burchakning 90 dan bir yoki doiraning 360 dan bir bo'lagi; gradus. *70 darajali burchak.*

10 fiz. Termometr, barometr va sh.k. o'lchov asboblari shkalasidagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan bo'limlar hamda shu bo'limlar ifodalaydigan harorat miqdori. *Suv 100 darajada qaynaydi. Bugun sovuq 20 darajaga yetgan. Kasalning isitmasi 38 darajadan oshibdi. — Harorat hozir qirq darajadan tushyapti. [N.Safarov, Olovli izlar].*

11 mat. Teng ko'paytuvchilarning ko'paytmasi, bir sonning o'zini o'ziga ko'paytirishdan olingan natija. *O'ning ikkinchi darajasi yuz.*

12 tlsh. Belgi-xususiyatning ortiq- kamligini ifodalovchi grammatik kategoriya, shakl. *Sifat darajalari. Ozaytirma daraja. — "Daraja kategoriyasi" maqolachasida sifat darajalari bosh da raja, orttirma daraja, ozaytirma daraja, deb uchga bo'linadi.* Bu ma'no qatlamlari orasida umumiste'mol bo'lganlari ham, terminologik mazmunga ega bo'lganlari ham mavjud. Xususan, matematikada "daraja" deganda bir son yoki ifodaning o'ziga bir necha marta ko'paytmasi tushuniladi. Analitik funksiyalar nazariyasida esa uning asosiy va ko'rsatkichi kompleks sonlar bo'lgan holatlari o'rganiladi. Fizikada esa daraja harorat yoki bosimni ifodalovchi o'lchov birliklarini bildiradi. Bu ma'no ko'proq *termometr, barometr* kabi asboblarda ishlatiladi. Ko'rinib turibdiki, "daraja" atamasi o'zbek tilida ko'p qirrali ma'noga ega bo'lib, u nafaqat ilmiy-texnik sohalarda, balki ijtimoiy, madaniy va lingvistik sohalarda ham keng qo'llanadi. Aynan shuning uchun bu tushunchani har tomonlama tahlil qilish, u bilan bog'liq terminlar, kategoriyalar, oppozitsiyalarni tizimlashtirish muhim ilmiy vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Darajalanish metodologiyasi orqali sinonimlar o'rtasidagi farqlarni chuqur tahlil qilib, ularni aniq tasniflashni va kontekstga qarab to'g'ri qo'llanishini ko'rsatib beradi. Bu, o'z navbatida, lug'at foydalanuvchilari uchun aniq va ishonchli ma'lumotlar taqdim etadi, tilni to'g'ri va samarali ishlatishga imkon yaratadi.

XX asrning 80-yillarida zamonaviy o'zbek tilshunosligida paydo bo'lgan giponimiya, partonimiya, darajalanish hodisalari so'zlarning leksik-semantik turlariga bo'lgan nazariyalarni o'zgartirib yubordi. Ayniqsa, so'zlararo darajalanish sinonimiya, antonimiya hodisalariga bo'lgan ilmiy qarashlarni yangiladi. Darajalanish qonuniyati borliqdagi deyarli barcha narsada, harakatda, belgida, holatda uchraydi. Masalan, *kichik-o'rta-katta* graduonimik qatoridagi pog'ona ko'pgina holatlarga mos tusha oladi: narsa-predmetlarga nisbatan ham, insonga nisbatan ham[2,28].

Tildagi darajalanish butun olam darajalanish hodisasining in'ikosdagi ko'rinishidir. Shuning uchun ham lisoniy darajalanish muammosini dialektik falsafaning materiya, uning harakati,

o'zgarishi, taraqqiyoti, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tib borishi, inkorni inkor kabi qonun va kategoriyalari talqinlari zaminlarida turibgina samarali tadqiq etish mumkin[2,28].

Dastlab, darajalanish va sinonimiya hamda antonimiya munosabatlari orasidagi chegarani belgilash muhim vzaifa sifatida qo'yildi. Darajalanish munosabati mustaqil paradigmatic munosabatlar sirasiga kirib, antonimiya va sinonimiya hodisalari graduonimik qatorida aks etadi. Bu holat yuzasidan o'z qarashlarini isbotlab, tilshunos O.Bazarov, aslida bunday semantik hodisa sinonimiyaning emas, balki graduonimiyaning periferik (graduonimiya yoki antonimiyaning sinonimiya ichiga kirib borishi, tutashish) belgilaridir[3,62], degan fikrni bildiradi.

Graduonimiyada belgining o'sib borishi aniq ko'rinadi. So'zlarning (ma'no) miqdoriy ko'rsatkichiga ko'ra darajalanishini asoslovchi guruhlangan so'zlar qatorini graduonimik lug'aviy qatorni tashkil etadi. Masalan, ranglarning och rangdan to'q holatga o'tishi jarayonida oraliqda turli xil ranglar namoyon bo'ladi: *oq, gulobi, pushti, qizg'ish, qizil, ol, qirmizi, qora*. Aslida har qanday yorqin ranglar oq va qora ranglar orasida yotadi. Ranglar mutaxassisi hisoblanmish rassomlar oq va qora ranglarni boshqa rangga aralashtirish orqali tabiatda mavjud bo'lgan deyarli barcha ranglarni hosil qila oladi. Demak, miqdorning quyidan yuqoriga qarab, ya'ni ozdan ko'pga qadar siljishi natijasida ranglar ochdan to'qqa qarab o'sib boradi. Ammo oqning qoraga siljishini darajalaydigan bo'lsak *oq-kulrang-qora* graduonimik qatori hosil bo'ladi. Vaholanki, bu graduonimik qatorni yanada kengaytirish imkoni mavjud (yuqoridagi qizillik belgisining ishtirokiga ko'ra oqdan qoraga o'sish qatori), chunki tabiatda kulrangning och belgidan to'q belgiga o'sib borishi natijasida *och kulrang, to'q kulrang* va yana biz nomini bilmaydigan *kulrang*ning turli xil variantlari hosil bo'lishi mumkin.

Lug'aviy darajalanish leksema va frazemalarning semantik qurilishlariga xos bo'lib, bunda har bir mustaqil semema tarkibida bir turdagi belgining ozlik va ko'plik holatini aks ettiruvchi sema mavjud bo'ladi. Aslida shu sema aloqador bo'lgan belgining ikki yoki undan ortiq leksema va frazemalarga xosligidan lug'aviy birliklarning darajalanish (graduonimik) qatori yuzaga keladi. Lug'aviy darajalanish qatorlarining, ya'ni izchil shakllanishlarining mazmun jabhasi, avvalo, yuksak darajadagi in'ikosi umumlashmaga ega bo'lgan, shuningdek, hamroh tarzda bog'langan uch tarkibiy qismdan iboratdir. Bular tarixan materiyaning miqdor va sifat jihatdan to'xtovsiz o'zgarishlari yoxud tadrijiy rivojlanishlari asosida vujudga kelgan hozirgi narsalar olami hamda narsalar olamining umumiy atributi bo'lgan makonning xilma-xil joylar tarzidagi ko'rinishlari va materiyaning ikkinchi atributi bo'lgan zamonning vaqtlar tarzidagi xususiylanish holatlariki, bular lug'aviy darajalanish qatorlari nominatsiyasining umumiy mazmun ko'lamlarini tashkil etadi[5,69].

Graduonimiya hodisasining tilshunoslikda paydo bo'lishi va tadqiqot ishlari olib borilishi XX asrning oxirlariga to'g'ri keladi. O'zbek tilshunosligida darajalanishga doir dastlabgi fikrlar E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulovlar tomonidan e'lon qilingan "Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi (Sistem leksikologiya tezislari) nomli maqolada "Lug'aviy semantik guruh ichida lug'aviy morfemalar turli-tuman leksik-semantik munosabatlar bilan bog'lanadi: giponimik, partonimik, funksionimik, graduonimik, iyerarxonimik kabi munosabatlar shular jumlasidandir. Graduonimiya asosida lug'aviy semantik guruhlariga ma'lum bir belgi-xususiyyatining turli darajalarini ifodalovchi lug'aviy morfemalar birlashadi: *ninni, chaqaloq, go'dak, bola, o'spirin, o'smir; qulun, toy, go'nan, do'non*"[6,37] keltiriladi va bundan keyingi tadqiqotlar uchun ushbu maqola asos vazifasini o'tadi. Mualliflardan H.Ne'matov va R.Rasulovning "O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari"[7]o'quv qo'llanmasida ham graduonimiyaga doir fikrlar umumlashtirilgan holda o'quvchilarga taqdim etidi.

XX asrning 90-yillarida ayniqsa bu jarayon tezlashdiki, buning natijasi sifatida graduonimiya bag'ishlangan tadqiqotlar himoyasi[8] ni aytish yetarli. So'zlararo ma'noviy darajalanishga oid jahon tilshunoslari tomonidan e'tirof etilgan fikrlarni M.Fayzullayev o'zining tadqiqot ishi[8] da batafsil yoritib beradi. Olim so'zlararo ma'noviy darajalanishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar o'sha davrda amalga oshirilmaganligini va faqatgina graduonimiyaga doir fikrlar mavjud ekanligini ta'kidlab o'tadi.

So'zlararo ma'noviy darajalanishning, graduonimiya hodisasining o'zbek tilshunoslari tomonidan yaratilgani va uni dunyo tilshunoslariga taqdim etganligi, darajalanish hodisasining jahon tilshunosligiga kirib borishi haqidagi tarixiy asoslarni H.Ne'matov isbotlab berdi. O'zbek

substansializmining o'zi mustaqil ravishda til tizimida ochgan graduonimik munosabatlar, bunday munosabatlarning leksik, morfologik, sintaktik sath birliklari orasida namoyon bo'lishini o'rganish va tavsiflashning fanimizda ishlab chiqilgan usullari jahon tilshunosligi uchun tom yangilik edi. Tilshunoslik tadqiqotida darajalanish hodisasining lug'aviy semantika va formal semantika/pragmatika sohalarida mavjudligi haqida qarashlar, taxminlar ilgari surilgan bo'lsa-da, hozirga qadar bu hodisa jahon tilshunosligida maxsus ma'noviy munosabat turi mavqeini egallamagan. Graduonimik munosabatlarning asosiy qonuniyatlari, bu munosabat turining sinonimiya, giponimiya, meronimiya (partonimiya), antonimiya v.h. bilan aloqalari, tilning barcha sath birliklari orasida voqelana olishi tavsiflanmagan. Shuning uchun graduonimiya va graduonimik munosabatlar o'zbek substansial tilshunosligida mustaqil ravishda ishlab chiqilgan ilmiy tushuncha sifatida baholanishi va qabul qilinishi lozim[13].

Darajalanish qonuniyatining tilshunoslikda paydo bo'lishi genetik asosini falsafiy kategoriyalarga bog'lagan tilshunos olim O.Bazarovning tadqiqot ishi[3]da darajalanish hodisasining kelib chiqishi va uni o'rganishda oddiy mantiq qoidalari asos qilib olingani alohida e'tiborga va ahamiyatga ega. Darajalanish hodisasining mantiqiy qonuniyatlar: empirik, dialektik tartibda tahlil qilinishi ushbu hodisaning tilshunoslikda o'rni katta ekanligini ko'rsatib turibdi.

Sh.Orifjonovanning graduonimiyaga bag'ishlangan ilmiy ishi[2]bu hodisaning tilshunoslikdagi o'rnini va tildagi lug'aviy darajalanishning ahamiyatini ochib berganligi bilan alohida e'tirofga loyiq. Olimaning o'tgan asrning 90-yillarida e'lon qilgan barcha maqolalari lug'aviy graduonimiyaga bag'ishlangan bo'lib, bu o'zbek tilshunosligida boshqa tadqiqotlarning yaratilishiga ham turtki bo'lgan. Ushbu tadqiqotda o'zbek tilshunosligida ham iyerarxiya, funksionimiya, partonimiya hodisalari bilan bir qatorda graduonimiya hodisasining ahamiyati va uning boshqa hodisalar bilan yonma-yon ekanligi isbotlangan hamda uning amaliy natijasi sifatida graduonimik qatorlar namunasi ishlab chiqilgan. Graduonimik qatorlar sinonimiya va antonimiya hodisalar tarkibida ko'proq kuzatilgani yuqoridagi fikrimizning isboti.

O'zbek tilshunosligida R.Safarovning iyerarxik munosabatlarga bag'ishlangan qarashlari[15] va Nofiza Vohidovanning "Nemis tilida leksik-semantik graduonimiya"ga bag'ishlangan ilmiy ishi butunjahon tilshunoslari tomonidan yangilik sifatida tan olingani o'zbek tilshunosligida tub burilish bo'ldi.

So'z ma'nosidagi darajalanuvchi belgi har bir guruhda turlicha bo'lishi mumkin. Ushbu turlichalik bir guruhdagi so'zlar ya'ni paradigmada ma'lum bir belgining ozlik yoki ko'plik darajasiga ko'ra farqlanadi. R.Jabborova, S.G'iyosov va M.Narziyeva[16]lar o'z ilmiy ishlarida so'z ma'nolarida darajalanish muammosini alohida tadqiq etib, shaxs ijobiy baho sifatleri va shaxsni yosh jihatidan tavsiflovchi otlarning ma'no tarkibi tavsifida tilshunoslikka birinchi marta belgi darajasi, ijobiy bo'yoq darajasi semalari kabi tushunchalarni kiritdilar.

Darajalanish turli ilmiy ishlarning tadqiq obekti bo'lishi bu masalaning o'zbek tilshunosligida ancha rivojlanganidan dalolat beradi. Shuningdek, darajalanish hodisasi o'zbek tilida ko'proq sinonimiya va antonimiya hodisasiga xos bo'lganligi sababli uning leksikografik ahamiyatini sinonimlar doirasida kuzatish mumkin[17].

O'zbek tili sinonimik lug'atlari tilning boyligini, ma'no va ifoda imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Ularda sinonim so'zlarning to'g'ri tanlanishi, ma'no nyuanslarini aniqlash va uslubiy farqlarni belgilash orqali nutqning ta'sirchanligi va ifodaliligini oshirishga erishiladi. Sinonimlarni darajalash metodologiyasi esa ushbu jarayonning ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi. Darajalash orqali sinonimlar o'zaro semantik yaqinligi, uslubiy bo'yalagi, ekspressivlik darajasi va qo'llanish sohasi bo'yicha turkumlanadi. Bu esa sinonimlar o'rtasidagi kichik farqlarni aniqlashga, ularni to'g'ri tanlash imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Раҳмонов Ф. Р. Ўзбек тилида луғавий синонимия ва градуонимиянинг ўзаро муносабати: филол. Фанл. Фалс. Докт. ...дисс. – Фарғона, 2018. – Б 19.

2. Орифжонов Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 28 б.
3. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш; Филол. фанл. докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – Б 19.
4. Бозоров О. Градуонимиянинг антонимия ва синонимияни шакллантиришдаги ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. 1996. №2 Б.62-64.
5. Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. – Тошкент: “Фан”, 1995. – Б.69.
6. Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем лексикология тезислари) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. №6 – Б. 37
7. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
8. Файзуллаев М. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состояния в русском и узбекском языках: Дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1994.
9. Щербаков А В Градация как стилистическое явление Современного русского литературного языка Автореф.дис. ...канд.филол.наук. – Красноярск., 2004.
10. Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке (на материале обще употребительных зоонимов): Дисс. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 1990.
11. Нарзиева М. Шахсни ёш жиҳатдан тавсифловчи отларнинг маъно таркиби: Филол.фан.ном....дис. –Тошкент, 1992.
12. F.Saidova. Lug‘atlarda sinonim leksemalar talqini. Filol. fan. fals. dok. diss. – Guliston, 2023. – В 66.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000